

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIRISH

Samandarov Asadbek

*O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi
Bank ishi va audit yo'nalishi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar hamda ilmiy-amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, yuqori likvidli aktivlar, foizli daromadlar, kredit portfeli

KIRISH

Tijorat banklarining kapital bazasini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash milliy bank tizimi barqarorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashish darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida ta'kidlab o'tilgan [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi masalasi ko'plab xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan hamda tegishli xulosalar, tavsiyalar shakllantirilgan.

Prof O.Lavrushinining fikriga ko'ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy e'tibor guruhash va tarkibiy tahlilga qaratilishi lozim, shundagina har bir guruh operatsiyalardan olingan foydaning darajasi va barqarorligiga real baho berish mumkin [3].

Biz O.Lavrushinining ushbu xulosasiga to'liq qo'shilamiz va qo'shimcha sifatida aytmoqchimizki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda qiyosiy tahlil usuli ham muhim o'rinn tutadi. Bunda qiyosiy tahlilni boshqa banklar bilan amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Jahan tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHЛИL

Tijorat banklari foizli daromadlarining umumiy hajmida kreditlardan olingan foizli daromadlar salmog'ining yuqori va barqaror bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli, Jahan tiklash va

taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan taklif etilgan sof foizli spred koeffitsientini hisoblash metodikasidan respublikamiz banklarining kreditlardan olingan foizli daromadlarning barqarorligini baholashda foydalanish, fikrimizcha, muhim amaliy ahamiyatga ega [4].

Jahon tiklash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, sof foizli spred koeffitsientini hisoblashda talab qilib olinadigan depozitlar summasi va ularga to‘langan foizlar hisobga olinmasligi kerak.

Fikrimizcha, sof foizli spred koeffitsientini hisoblashda talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig‘i hisobga olinishi lozim. Chunki, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a’zo mamlakatlarning bank amaliyotida talab qilib olinadigan depozitlardan kredit resursi manbai sifatida foydalaniladi. Bundan tashqari, sof foizli spred koeffitsientini hisoblash formulasida banklararo kreditlar summasi va ularga to‘langan, ulardan olingan foizlar summasi alohida ko‘rsatilishi lozim. Buning boisi shundaki, banklararo kreditlar tijorat banklari uchun kredit resursi manbai hisoblanadi, ular muddatli depozitlar kabi aniq muddatlarga va foiz stavkalariga ega.

Jahon tiklash va taraqqiyot bankning ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan mazkur koeffitsientlarga nisbatan tanqidiy fikr bildirishdan yiroqmiz, buning sababi shundaki, birinchidan, qayd etilgan ko‘rsatkichlar ilmiy jihatdan asoslangan ko‘rsatkichlardir; ikkinchidan, ular dunyoning ko‘plab mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo‘llanilmoqda.

AQShlik taniqli iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy e’tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o‘rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta’minlash lozim, deb hisoblaydi.

E. Dolan ikkilamchi zahiralarning quyidagi to‘rt shaklini ajratib ko‘rsatdi [5]:

- a) Hukumatning qimmatli qog‘ozlari
- b) Boshqa banklarning depozit sertifikatlari
- c) Tijorat qimmatli qog‘ozlari
- d) Fondlar.

Tijorat qimmatli qog‘ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori likvidli aktivlar qatoriga kiritish mantiqan to‘g‘ri emas. Chunki tijorat qimmatli qog‘ozlari aniq moddiy kafolatga ega emas, ayniqsa, respublikamiz sharoitida ko‘plab korxonalarning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha to‘lovsizlik muammosi mavjud. Chunki aynan shu depozitlarning nobarqarorlik darajasi yuqori bo‘lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, depozitlarning barqaror qismining jami depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotiga xos bo‘lgan holat hisoblaandi. Rivojlanyotgan davlatlarda esa, moliya bozorlari rivojlanmaganligi, Markaziy bankning monetar siyosatida noaniqliklarning mavjudligi va boshqa omillar xo‘jalik sub’ektlarining

moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

D.Saidov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida kredit operatsiyalarining daromadliligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilgan. Sh.Abdullaeva esa, tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin deb hisoblaydi.

Tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlar salmog'iga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi va odatda ushbu salmoq 60 foizdan yuqoridir. Shu sababli, kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i ham 60 foizdan yuqori bo'lishi kerak.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash xususida xilma-xil fikrlar mavjud. Bir guruh iqtisodchi olimlar tijorat banklarining likvidlilagini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar hisobidan ta'minlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Fikrimizcha, ushbu xulosa amaliy ahamiyatga ega bo'lib, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning aktivlarning daromadliligi va likvidliligi o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash xususidagi fikrlariga ko'shilamiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli Farmoni
3. Lavrushin O.I. Bank ishi. – M.: KnoRus, 2018. – S. 251.
4. McNaughton D. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi bank institutlari. Per. ingliz tilidan - Vashington: IER, 2014.
5. Edwin J. Dolan va boshqalar Pul, bank va pul-kredit siyosati. – Sankt-Peterburg: "Sankt-Peterburg orkestri", 2014. – B. 90-93.
6. Umarova Z.S. Tijorat banklarining kredit emissiyasini tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 16.